

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY



VOLUME 6
ISSUE 1 2026

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

6-JILD, 1-SON

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ
ТОМ-6, НОМЕР-1

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY
VOLUME-6, ISSUE-1



TOSHKENT - 2026



ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ | INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-1419-2026-1>

BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:

MIRZAYEV IBODULLA
f.f.d., professor (O'zbekiston)
МИРЗАЕВ ИБОДУЛЛА
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
MIRZAYEV IBODULLA
DSc, professor (Uzbekistan)

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ
ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:**

JABBOROV NURBOY
f.f.d., professor (O'zbekiston)
ЖАББОРОВ НУРБОЙ
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
JABBOROV NURBOY
DSc, professor (Uzbekistan)

TAHRIRIY HAY'ATI:

Muhiddinov Muslihiddin

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Dilorom Salohiy

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Sodiqov Qosimjon

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Binnatova Almaz Ulvi

f.f.d., professor (Ozarbayjon)

To'xliyev Boqijon

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Shodmonov Nafas

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Asadov Maqsud

f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Yo'ldoshev Qozoqboy

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Jo'raqulov Uzoq

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Funda Toprak

f.f.d., professor (Turkiya)

Nabiulina Guzal

f.f.d., professor (Tatariston)

Yusupova Dilnavoz

DSc, professor (O'zbekiston)

Sirojiddin Xo'jaqulov

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Rahim Ibrohim

f.f.d., professor (Afg'oniston)

Turobov Abdurahim

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Muhitdinova Badia

DSc, professor (O'zbekiston)

Muhammadiyev Ahadjon

DSc, dotsent (O'zbekiston)

Suvonova Jumagul

f.f.n., dotsent (O'zbekiston)

Mirzayev Rahmatilla

y.f.n., dotsent, huquqshunos (O'zbekiston)

Abdullayeva Albina

f.f.n., dotsent (O'zbekiston)

Nurova Gulchehra

f.f.n., dotsent (O'zbekiston)

Sultanov Tulkin

PhD, dotsent (O'zbekiston)

Ubaydullayev Normuhammad

PhD, dotsent (O'zbekiston)

Ruzmanova Roxila

dots., mas'ul kotib (O'zbekiston)

Narziyeva Ma'mura

PhD, kotib (O'zbekiston)

ILMIY MASLAHAT KENGASHI

Xalmuradov Rustam

t.f.d., professor (O'zbekiston)

Sirojiddinov Shuhrat

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Eshqobil Shukur

*O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan madaniyat
xodimi, shoir (O'zbekiston)*

Rixsiyeva Gulchehra

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Benedek Peri

f.f.d., professor (Vengriya)

Olimov Karomatillo

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Dadaboyev Hamidulla

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Shomusarov Shorustam

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Dyu Rye Andre

f.f.d., professor (Fransiya)

Hamroyev Juma

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Aftondil Erkinov

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Hasanov Shavkat

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Umurova Go'zal

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Xalliyeva Gulnoz

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Alim Labib

f.f.d., professor (Afg'oniston)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Мухиддинов Муслихиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилором Салохий
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Содиков Косимжон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Биннатова Алмаз Улви
д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Тухлиев Бокижон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Шодмонов Нафас
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Асадов Максуд
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Юлдашев Казакбай
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Журакулов Узок
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Фунда Топрак
д.ф.н., профессор (Турция)
Набиуллина Гузаль
д.ф.н., профессор (Татаристан)
Юсупова Дилнавоз
DSc, профессор (Узбекистан)
Сирожиддин Хужакулов
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Рахим Иброхим
д.ф.н., профессор (Афганистан)
Туробов Абдурахим
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухигдинова Бадиа
DSc, профессор (Узбекистан)
Мухаммадиев Ахаджон
DSc, доцент (Узбекистан)
Сувонова Жумагул
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Мирзаев Рахматилла
к.ю.н., доцент (Узбекистан)
Абдуллаева Альбина
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурова Гулчехра
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Султанов Тулкин
PhD, доцент (Узбекистан)
Убайдуллаев Нормухаммад
PhD, доцент (Узбекистан)
Рузманова Рохила
доц., отв. секретарь (Узбекистан)
Нарзиева Мамура
PhD, секретарь (Узбекистан)

НАУЧНО-КОНСУЛЬТАТИВНЫЙ СОВЕТ:

Халмурадов Рустам
д.т.н., профессор (Узбекистан)
Сирожиддинов Шухрат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Эшқобил Шуккур
Заслуженный работник культуры Республики
Узбекистан, поэт (Узбекистан)
Рихсиева Гулчехра
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бенедек Пери
д.ф.н., профессор (Венгрия)
Олимов Кароматилло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дадабаев Хамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Шомусаров Шорустам
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дю Рье Андре
д.ф.н., профессор (Франция)
Хамроев Джума
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Афтондил Эркинов
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Хасанов Шавкат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Умурова Гузал
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Халлиева Гулноз
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Алим Лабиб
д.ф.н., профессор (Афганистан)

EDITORIAL BOARD:

Mukhiddinov Muslikhiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dilorom Salokhiy
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Sodikov Kosimjon
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Binnatova Almaz Ulvi
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Tukhliev Bokijon
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shodmonov Nafas
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Asadov Makhsud
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Yuldoshev Kozokboy
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Jurakulov Uzok
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Funda Toprak
DSc, prof. (Türkiye)

Nabiulina Guzal
DSc., prof. (Tatarstan)

Yusupova Dilnavoz
DSc, prof. (Uzbekistan)

Sirojiddin Khujakulov
DSc, prof. (Uzbekistan)

Rakhim Ibrokhim
DSc, prof. (Afghanistan)

Turobov Abdurakhim
DSc, prof. (Uzbekistan)

Mukhitdinova Badia
DSc, prof. (Uzbekistan)

Mukhammadiyev Akhadjon
DSc, assoc. prof. (Uzbekistan)

Suvonova Jumagul
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Mirzayev Rahmatilla
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Abdullayeva Albina
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Nurova Gulchekhra
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Sultanov Tulkin
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Ubaydullayev Normuhammad
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Ruzmanova Rokhila
Assoc. prof., Exec. Sec. (Uzbekistan)

Narziyeva Ma'mura
PhD, Secretary (Uzbekistan)

SCIENTIFIC ADVISORY BOARD:

Khalmuradov Rustam
Doc. of technic. scien., prof. (Uzbekistan)

Sirojiddin Shukhrat
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Eshqobil Shukur
Honored Worker of Culture of the Republic of Uzbekistan, poet (Uzbekistan)

Rikhsieva Gulchekhra
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Benedek Peri
Doc. of philol. scien., prof. (Hungary)

Olimov Karomatullo
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dadaboev Khamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shomusarov Shorustam
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dyu Rye Andre
Doc. of philol. scien., prof. (France)

Khamroev Juma
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Aftondil Erkinov
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Khasanov Shavkat
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Umurova Guzal
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Khallieva Gulnoz
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Alim Labib
Doc. of philol. scien., prof. (Afghanistan)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

NAVOIY VA ADABIY TA'SIR MASALALARI

1. Афтондил ЭРКИНОВ АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЭРОН ҚЎЛЁЗМАЛАРИ.....	7
2. Sherxon QORAYEV O'ZBEK XONLIKLARIDA NAVOIYXONLIK TENDENSIYALARI (XIVA XONI MUHAMMAD RAHIMXON FERUZNING "NAVOIYXONLIK" KECHALARI MISOLIDA)...	15
3. Nigora TO'XTAQULOVA ALISHER NAVOIY HIKOYALARINING FOLKLOR BILAN BOG'LANISHI ("MAJOLIS UN-NAFOIS" TAZKIRASI MISOLIDA).....	21
4. Jumagul SUVONOVA ALISHER NAVOIY VA ABDULLA ORIPOV IJODIDA TARBIYAVIY G'OYALAR UZVIYLIGI AN'ANA VA ZAMON TALQINIDA.....	30
5. Zulfiya RASULOVA UZBEKSKO-TADJIKSKIE LITERATURNYE SVYAZI XX VEKA.....	37
6. Sitara QODIRQULOVA ALISHER NAVOIY LIRIKASI TARJIMONI ALEKSANDR NAUMOV HAQIDA.....	43

NAVOIY NASRI VA NAZMI NAFOSATI


1. Shavkat YANGIBOYEV "ILK DEVON" SHE'RLARINING ALISHER NAVOIYNING BOSHQA DEVONLARIGA JORIYLANISHI.....	48
2. Shaxnoza KAXXAROVA ALISHER NAVOIYNING "HOLOTI SAYYID HASAN ARDASHER" MANOQIBIDA KOMIL INSON TALQINI.....	58
3. Sherxon QORAYEV ALISHER NAVOIY "OLIIY MAJLISLARI" VA NADIMLARI.....	70
4. Umida OTAYAROVA "XAMSA"LARNING SO'NGGI DOSTONLARIDA ILM-MA'RIFAT TALQINI.....	79
5. Dilfuza RAXMATOVA NAVOIY G'AZALLARIDA SOLETSIZMNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....	85
6. Dilafro'z TAMIKAYEVA ALISHER NAVOIY ASARLARI TILI VA UNI TADQIQ ETISH MASALALARI.....	92

NAVOIY VA TILSHUNOSLIK MASALALARI

1. Umida UBAYDULLAYEVA TILSHUNOSLIKDA LISONIY MANZARA KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI VA ILMIY TALQINLARI.....	99
2. Rustamjon JABBOROV BOBURIYLARNING TURKIY TIL VA ADABIYOT RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI.....	105

TAQRIZ, TAHLIL VA TARJIMA

1. Iroda ISHONXANOVA O'ZBEK ADABIYOTI YO'LBOSHCHISIGA BAG'ISHLANGAN NASHR.....	112
2. Roxila RUZMANOVA TURK DUNYOSINING YIRIK TADQIQOTCHISI.....	122



Umida OTAYAROVA


“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, PhD, dots.v.b.

E-mail: umida.bolibekovna@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-5892-1614/>

“XAMSA”LARNING SO‘NGGI DOSTONLARIDA ILM-MA’RIFAT TALQINI

For citation: Otayarova Umida. THE INTERPRETATION OF KNOWLEDGE AND ENLIGHTENMENT IN THE LATER POEMS OF THE “KHAMSA”. Alisher Navoi. 2026, vol. 6, issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19412128>

ANNOTATSIYA

Xamsashunoslik an’anasi Sharq xalqlari adabiyotining asrlar davomida shakllangan muhim badiiy-ma’rifiy hodisasi bo‘lib, u inson kamoloti, axloqiy yetuklik va ilm-u ma’rifat g‘oyalarini targ‘ib etishga xizmat qilgan. Ushbu an’ananing shakllanishida Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy kabi buyuk fors-tojik adabiyoti namoyandalari muhim rol o‘ynagan. Ular yaratgan “Xamsa” dostonlari nafaqat badiiy mukammalligi, balki chuqur falsafiy va ma’rifiy mazmuni bilan ajralib turadi. Turkiy adabiyotda esa Alisher Navoiy bu an’anani yuksak darajada davom ettirib, o‘zining betakror “Xamsa”si bilan uni yangi bosqichga ko‘tardi. Xamsa dostonlarining barchasida ilm-u ma’rifat masalasi yetakchi g‘oyalardan biri sifatida talqin etiladi. Shoirlar ilmni insonni komillikka eltuvchi eng muhim vosita sifatida baholab, hikoyatlar, naqllar va ramziy obrazlar orqali bu fikrni mustahkamlaydi. Ayniqsa, Xamsaning so‘nggi dostonlari – “Iskandarnoma”larda ilm va hikmat masalasi alohida falsafiy mazmun kasb etadi. Iskandar obrazi bu dostonlarda faqat jahongir sifatida emas, balki bilimga chanqoq, donishmandlar suhbatidan bahramand bo‘ladigan adolatparvar hukmdor sifatida gavdalanadi. Iskandarning hakimlar bilan muloqoti, ularning pand-nasihatlari orqali ilmning inson hayoti, davlat boshqaruvi va jamiyat taraqqiyotidagi beqiyos o‘rni ochib beriladi. Shu orqali mualliflar kuch va qudratdan ko‘ra ilm va ma’rifat ustuvor ekanini ta’kidlaydi. Mazkur maqolada “Iskandarnoma” dostonlarida ilm-u ma’rifat g‘oyasining badiiy-falsafiy talqini keng qamrovda tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Xamsanavislik, Sharq adabiyoti, Alisher Navoiy, Iskandarnoma, ilm-u ma’rifat, komil inson, falsafiy talqin, badiiy obraz

Умида ОТАЯРОВА

Международный университет туризма и культурного наследия «Шелковый путь», PhD, и.о. доцента

E-mail: umida.bolibekovna@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-5892-1614/>

**ТОЛКОВАНИЕ НАУКИ И ПРОСВЕЩЕНИЯ В ПОСЛЕДНИХ ПОЭМАХ
«ХАМСЫ»****АННОТАЦИЯ**

Традиция хамсашунослика является важным художественно-просветительским явлением в литературе народов Востока, сформировавшимся на протяжении веков и направленным на утверждение идей духовного совершенства личности, нравственной зрелости и ценности знания. Существенный вклад в становление данной традиции внесли выдающиеся представители персидско-таджикской литературы – Низами Гянджеви, Хосров Дехлеви и Абдурахман Джамии. Созданные ими поэмы цикла «Хамса» отличаются не только высоким уровнем художественного мастерства, но и глубоким философским и воспитательным содержанием. В тюркской литературе Алишер Навои творчески развил эту традицию, создав собственную «Хамсу» и выведя её на качественно новый этап развития. Во всех поэмах цикла особое место занимает проблема знания и просвещения, которые рассматриваются как ключевые факторы формирования совершенной личности. Данная идея раскрывается посредством притч, назидательных рассказов и символических образов. Особенно ярко философское осмысление науки и мудрости проявляется в заключительных поэмах – «Искандарнаме». Образ Искандара представлен здесь не только как образ завоевателя, но прежде всего как справедливого правителя, стремящегося к познанию и прислушивающегося к наставлениям мудрецов. Через его диалоги с философами авторы подчёркивают приоритет знания и разума над силой и властью. В статье анализируется художественно-философская интерпретация идей просвещения в поэмах «Искандарнаме».

Ключевые слова: традиция Хамсы, восточная литература, Алишер Навои, Искандарнаме, знание и просвещение, совершенный человек, философская интерпретация, художественный образ.

Umida OTAYAROVA

"Silk Road" International University of Tourism and Cultural Heritage,

PhD, Acting Associate Professor

E-mail: umida.bolibekovna@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-5892-1614>

**THE INTERPRETATION OF KNOWLEDGE AND ENLIGHTENMENT IN THE
LATER POEMS OF THE “KHAMSA”****ABSTRACT**

The tradition of Khamsa studies represents a significant artistic and educational phenomenon in the literary heritage of Eastern peoples, formed over centuries and aimed at promoting human perfection, moral maturity, and the pursuit of knowledge. The development of this tradition is closely associated with such prominent representatives of Persian-Tajik literature as Nizami Ganjavi, Khusraw Dehlavi, and Abdurrahman Jami. Their Khamsa epics stand out not only for their high artistic quality but also for their profound philosophical and didactic content. In Turkic literature, Alisher Navoi elevated this tradition to a new level by creating his unique Khamsa, thereby enriching it with original artistic and intellectual interpretations. Throughout all the epics of the Khamsa, the theme of knowledge and enlightenment occupies a central position. Poets portray learning as the primary means of achieving human perfection, reinforcing this idea through parables, narratives, and symbolic imagery. Particularly in the final epics known as Iskandarnama, the concepts of knowledge and wisdom acquire deep philosophical significance. The image of Iskandar is presented not merely as a conqueror, but as a just ruler striving for knowledge and engaging in dialogue with sages. Through these interactions, the indispensable role of knowledge in individual life, governance, and social progress is vividly demonstrated. This article examines the artistic and philosophical interpretation of enlightenment in the Iskandarnama epics.

Keywords: Khamsa tradition, Eastern literature, Alisher Navoi, Iskandarnama, knowledge and enlightenment, perfect human, philosophical interpretation, literary imagery.

Kirish: Ilm shunday bebaho xazinaki, u insoniyat taraqqiyotining asosiy poydevori hisoblanadi. Sharq va G‘arb faylasuflari, mutafakkirlari hamda allomalari o‘z asarlarida ilmni eng oliy fazilat sifatida ulug‘lab, kishilarni doimo ilm olishga, tafakkur qilishga va bilim orqali kamol topishga da‘vat etib kelishgan. Ular ilmni jaholat zulmatini yorituvchi nur, insonni yuksaklikka eltuvchi qudratli kuch deb baholaganlar. Sharq mutafakkirlari, jumladan, Navoiy va salafлари ilmni nafaqat dunyoviy taraqqiyot, balki ma‘naviy poklanish vositasi sifatida talqin etadilar. Mutafakkirlarning “Xamsa”larida ilm-ma‘rifat komillikka eltuvchi yo‘l sifatida talqin etiladi. Xususan, hazrat Navoiy “kim olimlarga ta‘zim etsa, u payg‘ambarlarga ta‘zim etgandek bo‘ladi”, deb yozadi. Inson bolasi birinchi navbatda ilm bilan fazilat va kamol topadi. Ammo ilmga shavq taqvo va poklikka muhabbatdan tug‘iladi. Nechunkim, ilm Olloh ne‘mati, olim Olloh bergan sharafli nasiba. Navoiy ilmni hunardan, kasbdan farq qilishni tavsiya etadi. Ilm yashash vositasi – kasb emas, balki fazilat topish, yuksalish vositasi.

Asosiy qism: Nizomiy Ganjaviyning “Iqbolnoma” dostonida shoh Iskandarning turli soha olimlari bilan inson va koinot, borliq, ijtimoiy hayot, ilohiyot xususidagi savol-javoblari batafsil yoritilgan. Iskandar yetti faylasuf: Balinos, Suqrot, Arastu, Falotun, Volis-u Farfuriyus, Ruhuludus, va Hirmisi valiylar bilan olamning yaratilishi va turli mavzularda majlislar tuzadi. Albatta, haqiqiy olim va faylasuflar davrasi ilm nuri bilan charag‘on bo‘ladi. Ularning davrasini shoir shunday ta‘riflaydi:

Yetti pargor edi shoh tegrasida,
Ul esa nuqtadek ilk o‘rtasida.
Ajab davra edi, shu kuchli porloq,
Kibrdan xoli-yu, bodadin yiroq...(Nizomiy Ganjaviy, 2017:139)

Shoir ilm ahlining doimo kibrdan va bodadan yiroq bo‘lishini, bunday davralarni ilm nuri yoritib turishini mana shunday misralarda chizib beradi. Nizomiy Ganjaviyda Navoiydagi kabi aynan ilm haqida bob ajratilmagan bo‘lsa-da dostonning umumiy sujeti bilan birgalikda ilm bahsi olib boriladi. Jumladan, dostonning muqaddimasida shoir Iskandarni ilm-u hunar o‘rganib, keyin ota taxtni egallaganligini, olim-u fuzalolarni atrofiga yig‘anligini bayon qiladi:

Qaror bo‘ldi, shoh oldida bardavom,
Ilmi ila har kimsa tutgay maqom.
Ilmga zo‘r berdi sohibi davlat,
Olimlar etdilar ilmu fanga jahd.
Yuzlarni ilm-la ravshan etdilar,
Dillarni ilm-la gulshan etdilar.
Ul shohi donishyor himmati bilan
Yunonning shuhrati yuksaldi baland.
Garchi toju taxti cho‘kdi, yo‘q oldi,
Nomi ma‘rifatda, ilmida qoldi (Nizomiy Ganjaviy, 2017:44).

Moriyayi Qibtiya haqidagi rivoyatda ham ayolning ilm tufayligina yuksalgani, ilmning porloq nuri bois aziz va mukarram bo‘lib, otasining davlatini qayta tiklaganini bayon qiladi va uning ilmga rag‘batini shunday keltiradi:

Ilmga yopishdi, ilmga tanho,
Ilmga yetmoqni etdi muddao (Nizomiy Ganjaviy, 2017:72).

Shuningdek, adib dostonning “Har ishda me‘yorga rioya qilish zarurati” bobida obrazli tashbehdan foydalanib, ilmning qiymatini yuksak baholaydi:

Yiroq bo‘lsa aql-u donishdan saho,
Teshik tog‘oradek chiqarar sado.
Kishi gar me‘yorga amal etgusi,
Hisobda sanog‘i mingga yetgusi (Nizomiy Ganjaviy, 2017:260).

“Uzuk va cho‘pon” hikoyatida ham Iskandar olimlar bilan ilm bahsi xususida so‘zlashgani bayon qilinadi. Ya‘ni Iskandar Aflotun yaratgan cholg‘u sozini eshitgach, dunyodan sizdan bilimliroq olim o‘tganmi? – deydi. Hakim esa dunyo shuncha ko‘p donishmanlarni ko‘rganki, hozirda ular bilgan ilmning mingdan birini ham bilguvchilar yo‘q. Masalan, shulardan biri haqida hikoya qilib

beray, deya uzuk va cho‘pon hikoyatini keltiradi. Kunlardan bir kuni cho‘pon bir g‘orning oldidan o‘tib ketayotganida bir mis otni ko‘rib qoladi, uning bir tuynugi bo‘lib, quyosh nuri tushgan paytda ichida nimasi borligi ko‘rinib turar edi. Qarasa, ichida bir mayit bo‘lib, uning barmog‘ida uzugi yaltirab turar edi. Cho‘pon uning uzugini olib, barmog‘iga taqib oladi va ortiga qaytadi. Xojasining oldiga borib uzukni ko‘rsatmoqchi bo‘lganida u nega bir g‘oyib bo‘lib, yana paydo bo‘lyapsan, deb so‘raydi va cho‘pon shunda qo‘lidagi uzukni bir tepaga, bir pastga aylantirayotganini payqab qoladi. Tog‘ga borib uzukni yana sinab ko‘radi, uning sehliligiga ishonch hosil qilgach, shahar kezib maqsadlariga yetadi. Kunlardan bir kuni podshoh huzuriga borib, o‘zini payg‘ambar, deb tanishtiradi va unga imon keltir, deb buyuradi. Podshoh imon keltiradi, xullas, cho‘ponning dovruq‘i oshib, oxir podshohlik taxtini ham egallaydi. Aflotun bu hikoyatni keltirar ekan, o‘sha uzukni yasagan hakimlar qanday tilsim qilganlar? Buni bilishga qanchalik urinmay, bu sirni ocha olmadim, deydi.

Natija va muhokama: “Iqbolnoma”da Jahongirning ulug‘ faylasuflar bilan suhbatlari, payg‘ambarlik maqomiga yetib, G‘arb-u Sharq, Janub-u Shimol mintaqalariga sayohatlari va kutilmaganda vafot etgani qalamga olinib, Nizomiy shular vositasida o‘zining umr xulosalarini bayon etadi, hayot, mamot, aql va iymon, jamiyat va adolat kabi umumbashariy masalalar ustida muhokama va mushohada yuritadi.

Navoiy ham Iskandarni shoh va olim sifatida talqin etdi hamda Nizomiydan farqli o‘laroq shoh va olim obrazini bir-biriga biriktiradi, uning olijanob xislatlariga urg‘u beradi. “Saddi Iskandariy”da ham Iskandar hakimlar bilan suhbat qurib, o‘zini qiziqtirgan savollarga javob izlaydi. Nizomiydan farqli ravishda Navoiyda Iskandar faqat Arastu bilan suhbat quradi va bir o‘rindagina Iskandarning savoliga Suqrot javob beradi. Dostonda hikmat boblari ilmning foydasini ochib berishga xizmat qilgan. Zero, Iskandarning savoliga javob berish uchun kishi ilmdan xabardor bo‘lishi kerak.

Shuningdek, dostonida keltirilgan hikoyatlarining umumiy sujetiga ham ilm targ‘ibi singdirilgan. O‘ttiz yettinchi bobda ikki do‘stning taqdiri hikoya qilinganda ilmning foydalari bayon qilinadi. Ya‘ni safarga chiqqan do‘st umrini zoye ketkizmay ilm-u hikmat kasb etish payida bo‘ladi:

Musohib bo‘lub ahli hikmat bila,

Base ilm kasb etti rag‘bat bila.

Ne qilg‘olikim kimga niyatdurur

Burun shart anga qobiliyatdurur (Alisher Navoiy, 2006:205).

Ilmning foydasi bois yuqori martabaga erishib, shoh darajasiga ko‘tariladi.

Dostonning 78-79-boblari Luqmoni hakim haqida bo‘lib, uning donishmandligi, ilm-kamolot sohibi ekanligi haqida so‘z boradi. 79-bobda bir kishi Luqmoni hakimdan bu ilmingga sabab nima? Modomiki sen yashagan davrda ilm va bilimi senikiday bo‘lgan kishi yo‘q edi, deb so‘raydi. Hakim esa

Dedi: “Donish ahlig‘a aylanmadim,

Bilikni bilur eldin o‘rganmadim.

Jahon ilmi bukim manga yod erur,

Anga borcha jahl ahli ustod erur.

Nekim qildi johilki, erdi yomon,

Tutub aksi, toptim yomondin amon.

Jahon ahlig‘a chun shior o‘ldi jahl,

Erur borchaning aksini tutqon ahl” (Alisher Navoiy, 2006:415).

“Men donishmand kishilarga yaqinlashmadim, ya‘ni bilimni bilimdon kishilardan o‘rganmadim. Men bilgan dunyo ilmlarining barchasini olimlardan emas, johil kishilardan o‘rgandim. Ya‘ni bilimsiz, johil kishilar qanday nojo‘ya ishlarni qilgan bo‘lsa, men shularning aksini tutib, yomonlikdan omon qoldim. Jahonda jaholatni – bilimsizlikni o‘ziga kasb qilib olgan kishilarning ishini aksini olib borgan odam yaxshi va bilimdon bo‘la oladi”, – deya javob beradi. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, ilmni qanday sharoitda, qay vaqtda va qayerda o‘rganilishining ahamiyati yo‘q, shu bois inson to tirik ekan doimo ilm o‘rganish payida bo‘lishi kerak.

“Xiradnomayi Iskandariy” dostonida esa Iskandarning otasi o‘limi oldidan, Arastuni chaqirib, undan Iskandarning yonida bo‘lishni, Iskandarga xiradnoma yozib berishni iltimos qiladi. Bu bilan ijodkor podshohlarni kengashmay ish tutmaslikka, har bir ishni boshlashdan oldin, avvalo,

hakimlardan, ya'ni ilm ahliidan, o'z davrining fozil-u fuzalolaridan maslahat so'ramoqqa chorlaydi. Shu bilan birga, ilm ahli ham el dardiga sherik bo'lib, ularning og'irini yengil qilmoqlikda podshohga yelkadosh bo'lishi lozimligini ta'kidlaydilar.

“Xiradnomayi Iskandariy”da bilim va hikmat har qanday tashqi go'zallikdan ustun qo'yiladi. Jumladan, Faylaqus Arastuga yozgan maktubida Iskandarning hikmat va adolat haqida saboq olishi natijasida o'limidan so'ng ham mamlakati obod bo'lib, xalqi farovon yashashini istayotganini bildiradi. Chunki ilm bo'lmagan shohda jaholat va zulm ustun bo'ladi, – deydi. Iskandarning aqliy salohiyati va podshohlik qobiliyati yuksakligi sabab Arastu o'rgatgan saboqlar bekor ketmaydi. Jomiy husn-tarovatdan benasib hokim va nodon suhbat haqidagi hikoyatni keltirish orqali ilmning, ichki go'zallikning mohiyatini ochib beradi.

Зи ман ин хунар, баски чоң костам,

Ба нақши ҳақоик дил оростам.

Мусайқал шуд оинасон синаам,

Ду олам мусаввар дар оинаам.

Зи ман ёфт ачноси олам навӣ,

Шудам оламе нав, вале маънавӣ.

Ба такмили маънӣ, ки мақдур, буд,

Қусури такосил зи ман дур буд.

Чу таҳсини сурат ба тадбири ман,

Наёмад, мазан таъна тақсири ман (Абдаррахман Джамии, 1984:340).

Ya'ni “Ey soddadil, haqiqatdan jonim parvarish topib, menga ulug' ish nasib bo'ldi. Dilim oyna kabi ravshan bo'lgan mahal ikki olam unda namoyon bo'ladi. Mendan jahon ahli yangiliklar ko'rdi. Men ular uchun yangilik bo'ldim. Ma'naviy kamolot cho'qqisiga yetishganim bois sustlik mendan uzoqlashdi. Suratimni sozlashga imkonim bo'lmadi, Shu bois mendagi bu kamchilikni sen malomat qilma”.

Abdurahmon Jomiy Suqrot bilan bog'liq bobda Suqrotning minglab shogirdlari bo'lib, ulardan biri sifatida Aflotunni ko'rsatadi. Shogirdlariga (zimdan barchaga) doimo ilm o'rganish payida bo'ling, har bir ishni aql bilan bajaring, deydi. Hayotda shunday insonlar borki, juda qashshoq, ammo ularning ilmi martabasini osmonga qadar yetkazadi. Har bir davr va zamonda ilm-u hikmat egalari hurmat va e'tiborda bo'lganligi dostonning umumiy sujetiga singdirilgan.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, xamsanavislar o'z asarlarida ilmni ulug'laydi va insonlarni ilm o'rganishga, uni yuksaltirishga da'vat etadi. Xususan, hazrat Navoiy “kim olimlarga ta'zim etsa, u payg'ambarlarga ta'zim etgandek bo'ladi”, deb yozadi. Inson bolasi birinchi navbatda ilm bilan fazilat va kamol topadi. Ammo ilmga shavq taqvo va poklikka muhabbatdan tug'iladi. Nechunkim, ilm Olohd ne'mati, olim Olohd bergan sharafli nasiba. Navoiy ilmni hunardan, kasbdan farq qilishni tavsiya etadi. Ilm yashash vositasi – kasb emas, balki fazilat topish, yuksalish vositasi. Nizomiy Ganjaviyning “Iqbolnoma” dostonida shoh Iskandarning turli soha olimlari bilan inson va koinot, borliq, ijtimoiy hayot, ilohiyot xususidagi savol-javoblari batafsil yoritilgan. Iskandar yetti faylasuf: Balinos, Suqrot, Arastu, Falotun, Volis-u Farfuriyus, Ruhuludus, va Hirmisi valiylar bilan olamning yaratilishi va turli mavzularda majlislar tuzadi. Albatta, haqiqiy olim va faylasuflar davrasi ilm nuri bilan charag'on bo'ladi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Абдаррахман Джамии. “Хафт ауранг” (“Тухфат ал-ахрар”, “Субхат ал-абрар”, “Хираднама-йи Искандари”). Критический текст. – Москва: Наука, 1984. – С. 340.
2. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – T.: G'G'ulom nomidagi NMIU, 2006. 415 b.
3. Бертельс Е.Э. Навоий. Монография (И.К.Мирзаев таржимаси). – T.: Тафаккур қаноти, 2015.
4. Азизиддин Насафий. Комил инсон. – Тошкент: F.Фуллом номидаги НМИУ, 2021. – 232 б.

5. Mukhiddinov M. Professor of SamSU, d.f.f. Wisdom in the Praises of the Epic “Saddi Iskandariy”. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE “EISSN: 2660-6828 | Volume: 04 Issue: 05-May 2023 <https://cajipc.centralasianstudies.org>
6. Низомий Ганжавий. “Хамса” (форсийдан Олимжон Бўриев таржимаси). – Т.: Истиклол нури, 2016.
7. Shayx Nizomiy Ganjaviy. Iqbolnoma. (Forschadan Jamol Kamol tarjimasi). – Т.: Extremum – press, 2017.

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ
INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

“ALISHER NAVOIY” XALQARO JURNALINING AXBOROT XATI

“Alisher Navoiy” xalqaro jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK ro‘yxatiga kiritilgan. Shuningdek, Crossref.org tizimiga ham kiritiladi hamda har bir maqolaga DOI raqami beriladi.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 10-15 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- maqolalar o‘zbek, turk, tojik, rus, ingliz, fransuz tillarida qabul qilinadi;
- maqolaning tarkibiy tuzilishi IMRAD formatida rasmiylashtirilishi kerak;
- maqola Times News Roman shriftida, 12 kattalikda, 1 intervalda tayyorlanadi;
- havola(snokalar)lar katta qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi [Mo‘minov 2020: 25] shaklida keltiriladi;
- maqola tomonlari chap: 2 sm, o‘ng: 2 sm, yuqori va quyi: 2 sm;
- maqolalar plagiatga qarshi tekshiriladi;
- jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:
Tel.: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

ИНФОРМАЦИОННОЕ ПИСЬМО МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА “АЛИШЕР НАВОИЙ”

Международный журнал “Алишер Навоий” включен в список ВАК Республики Узбекистан. Он также будет включен в систему Crossref.org, и каждой статье будет присвоен номер DOI.

ТРЕБОВАНИЯ К ОФОРМЛЕНИЮ СТАТЕЙ:

- Объем статьи: около 10-15 страниц;
- статьи принимаются на узбекском, турецком, таджикском, русском, английском и французском языках;
- структура статьи должна быть оформлена в формате IMRAD;
- шрифт текста – Times New Roman; размер – 12 пунктов; межстрочный интервал – 1;
- сноски приводятся в квадратных скобках с указанием фамилии автора – года издания – страницы [Мўминов 2020: 25];
- параметры страницы: слева 2 см, справа 2 см, сверху и снизу по 2 см;
- статьи проверяются на плагиат;
- в одном номере журнала публикуется только 1 статья автора.

НАШИ КОНТАКТЫ:
Тел.: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

“ALISHER NAVOIY” INTERNATIONAL JOURNAL INFORMATION LETTER

“Alisher Navoiy” International Journal is included in the list of HAC of the Republic of Uzbekistan. It will also be included in the Crossref.org system, and each article will be assigned a DOI number.

REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

- The article should be presented in 10-15 pages;
- articles are accepted in Uzbek, Turkish, Tajik, Russian, English, French;
- the structure of the article should be in the IMRAD format.
- the article should be prepared in Times New Roman font, 12 sizes, 1 space;
- references are given in parentheses in the form of the author’s name – date of publication - page [Muminov 2020: 25];
- sides of the article left: 2 cm, right: 2 cm, top and bottom: 2 cm;
- articles will be checked against plagiarism.
- only 1 article by the author is published in 1 issue of the journal.

CONTACT ADDRESS:
Phone: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru